

ISSN 2010-5460

# МАКТАВ VA HAYOT

ILMIY-METODIK JURNAL

6 / 2020

## BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynudinova

## TAHRIR HAY'ATI

Amanjol AYAPOV  
Boris BLYAXER  
Baxodir SOBIROV  
Risboy JO'RAYEV  
Sevara ZUPARXODJAYEVA  
Lola MO'MINOVA  
Vahobjon RAJAPOV  
Nargiza RAXMONQULOVA  
Sherzod SHERMATOV  
Shavkat SHARIPOV

**Mas'ul kotib**  
Sayyora Alimxodjayeva  
**Adabiy muharrir**  
Sayyora Alimxodjayeva  
**Kompyuterda terish va dizayn**  
Mirtohir Xoliqov

Mualiflarning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualiflarning familiyası, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

**Muassislar:**  
O'quvchilarни kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxisi markazi «MAKTAB VA HAYOT» M.C.H.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda «MAKTAB VA HAYOT»dan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

**Jurnal 2001 yildan chiqa boshlagan.**

### MANZIL:

100095, Toshkent sh.,  
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.  
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktavahayot@sarkor.uz

**OBUNA INDEKSI - 1019**

## MUNDARIJA

- 2 A.B.RADJIYEV. Rahbar xodimlarning malaka oshirishini tashkil etishda ehtyojlarga asoslanish, uzlucksiz ta'lum va o'qitishning kredit-modul tizimi
- 3 L.GAYNUTDINOVA, N.BOYNAZAROVA. Ta'lum tizimida psixologik xizmat samaradorligini oshirish
- 5 K.A.XAYDAROV. Axborot xavfsizligi: yoshlarga ruhiy-informatsion ta'sir
- 7 F.A.AKRAMOVA. O'zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning asosiy muammolar
- 9 R.MUSURMANOV. Ota-onaning farzand oldidagi burchi ahida vafo qilmoqligidir
- 10 A.X.MAXMUDOV, J.N.YAKUBOV, A.T.AXUNJONOV. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxmat o'yinining didaktik imkoniyatlaridan foydalangan holda mantiqiy fikrashni rivojlantirish
- 12 M.D.GALDIYEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy tarbiya masalalari
- 13 M.N.MUZAFFAROV. Yangi turdag'i psixologik qurol: uning bolalarga ruhiy va jismoniy ta'siri
- 14 N.M.DALIMOVA. Yosh avlodni turli destruktiv oqimlardan saqlashdapsixotexnologiyalardan foydalananish
- 16 D.I.IIXAMOVA, N.X.VALIYEVA. Bolalarda chap qo'l ustunligi muammosi
- 18 N.A.MIRASHIROVA. Maktabgacha yoshdag'i bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik rivojlanishini aniqlashda psixolog kasbiy yetukligining ahamiyati
- 20 M.XALIMOV. Xorijiy davlatlarda o'qituvchilarining diplomdan keyingi ta'limi mazmuni
- 21 T.TOLIPOVA. Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik fanini o'qitishga yangicha yondashuv
- 24 N.H.ASLANOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni o'qish va uni tushunish darajasini oshirish usullari
- 25 Z.N.RAHMONOVA. Ma'naviyatning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati
- 27 N.M.KAZIMOVA, G.M.RAHMATULLAYEVA, SH.M.MUXTOROVA. Ta'lum samaradorligini oshirishda animatsiya va multimediyalarning o'mi va ahamiyati
- 28 I.T.AZIMOV, U.E.RAHMATOV, B.I.AZIMOV. O'quvchilarining tarbiyasini shakllantirishda maktab va oilaning hamkorlikdagi roli
- 29 N.X.VOXIDOVA. Ma'naviy va axloqiy ta'liming mazmuni va uni amalga oshirish imkoniyatlari
- 31 X.X.MURATOV. Umumiy o'rta ta'lum maktablarida chizmachilik fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari
- 32 SH.I.NIZAMOVA. Umumiy o'rta ta'lum maktablarini boshqarishda direktorlar iqtisodiy faoliyatini tashkil etish yo'llari
- 34 S.A.BOLTABOYEV. O'yinli texnologiyalar – o'qitishning samarali shakllari sifatida
- 36 R.A.MAMAJONOVA. Xulqi og'uvchanlikni namoyon qiluvchi psixologik xususiyatlar va ularni bartaraf etish yo'llari
- 37 U.SH.ISMATOV. Maktab texnologiya darslarida o'quvchilarining amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi
- 38 SH.T.XASANOVA. Maktabgacha yoshdag'i bolalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishda teatralashdirilgan o'yinlarning ahamiyati
- 39 T.L.XURVALIYEVA. Maktabgacha yoshdag'i bolalarni atrof olam bilan tanishtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalamanish imkoniyatlari
- 41 S.T.SAMADOVA. Bolaning psixik taraqqiyotida oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitning ahamiyati
- 43 O.E.TEPERHOVA. Konstruktivnaya deyatel'nost' detej doskol'nogo vospredstva i ee osobennosti



## Adabiyotlar

1. A. Abdullayev. "Psixokorreksion trening mashg'ulotlari" (Xulqi og'ishgan o'quvchilar bilan psixologik correksion-rivojlantiruvchi treninglar). – T.: – 2017.
2. <http://nond-nn.ru/psiko-correction-shkolnikov/>.

3. <http://www.dissertat.com/content/sotsialno-pedagogicheskaya-adaptatsiya-detei-gruppy-riska>.
4. <http://nsportal.ru/vuz/psikologicheskie-nauki/library/2013/03/27/programma-psikxokorrektssi-emotsionalnoy-sfery-detey>.

## MAKTAB TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING AMALIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**U.SH.Ismatov, Toshkent viloyati, Chirchiq Davlat Pedagogika instituti "Tasviriy san'at" kafedrasi o'qituvchisi**

В данной статье описываются методические рекомендации по развитию практического стимулирования труда на уроках технологии для школьников.

**Ключевые слова и понятия:** технология, навыки, практическая работа, ручной труд, трудовое обучение, методические рекомендации, творчество.

This article describes methodological recommendations for the development of practical stimulation of labor in technology lessons for schoolchildren.

**Key words and concepts:** technology, skills, practical work, manual labor, labor training, guidelines, creativity.

Maktab ta'liming hozirgi bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorlash o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiyasidagi eng zarrur masalalardan biridir. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlarga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta'limi jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, axloqiy, estetik iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslari bolalarni har tomonlama kamol toptirishga aqliy va jismoniy, axloqiy va estetik, iqtisodiy va ekologik bilimlarni shakllantirishga va tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, dars jarayonida quyidagi ish turlarini o'rgatadi

- 1.Qog'oz va karton bilan ishlash.
- 2.Turli materiallar bilan ishlash.
3. Gazlama (tikish va bichish) bilan ishlash.
- 4.Texnikaga modellash. (qurish-yasash)
5. Qishloq xo'jaligi mehnati.

Texnologiya darslari jarayonida hosil qilingan bilimlar, malakalar va ko'nikmalar maqsadsiz emas, balki insomning asosiy qobiliyati – mehnatga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Texnologiya darsining maqsadi – shaxsning turmush tarziga, mehnat madaniyatiga qaratilgan barqaror yo'l yo'rqnini qaror toptirish, ijodiy mehnat qilishga, amaliy, a[loqiy va ruhiy tayyorlarligini amalga oshirish, o'quvchilarni xalq xo'jaligidagi muvaffaqiyatli mehnat faoliyatida zarur bo'lgan ijodiy qobiliyatlarni, aqliy, jismoniy fazilatlarni rivojlantirishdir.

Texnologiya darsi o'zining ish bosqichlarida bolalar, o'smirlar va yoshlarning yoshi, funktsional imkoniyatlarining o'ziga xosligi, ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy mavqeiga muvofiq ravishda ko'p tomonlama yo'nalishga ega bo'lishi lozim. U quyidagilarni taqozo etadi:

- mehnatsevarlikni tarbiyalash, mehnat qilishga ehtiyojni,unga ongli, ijodiy munosabatda bo'lishni, o'z mahoratini doimo takomillashtirishga intilishni shakllantirish;
- kasbiy faoliyat uchun ahamiyatli bo'lgan psiko-fizologik funktsiyalarini, shaxsning kasb-korlikni jihatidan muhim bo'lgan umumiy va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- tanlangan faoliyat sohasiga kasbiy faoliyatni keng politexnik bilim doirasi va kasbiy harakatchamlar bilan birga qo'shgan holda shakllantirish;
- bunyodkorlik faoliyatni jarayonida haqiqiy mehnat munosabatlariga kirishi, jamao mehnatiga ijtimoiy tajriba to'plash;
- shaxsning barcha sohalarida madaniyatni tarbiyalash;
- zamonaviy iqtisodiy bilimlarni egallash, yangicha iqtisodiy tafakkurni, omilkorlikni shakllantirish.
- mustaqillikni, tashabbuskorlikni, ijodkorlikni, muammoli vaziyatlarni ijodiy ravishda hal qilishga hozirlikni shakllantirish.

**Mehnat darslarida amaliy ishlarni tashkil etish.** Jamiyatda har bir kishi qaysi sohada ish yuritmasin, mehnat jarayonida go'zalilik va nafislikni ko'ra olishi va tushuna bilishi kerak. Shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehnat darslarida amaliy ishlarni

o'rgatishda ularga amaliy ishga estetik jihatdan yondashish, atrof-muhitdagi ranglarning turli-tumanligini, tabiat go'zalliklarini mehnat mashg'ulotlari jarayonida o'rgatish muhim hisoblanadi.

Mehnat darslarida amaliy ishlarni bajarishda quyidagi dars ishlamasing namunasini tavsija etamiz.

### Mavzu: Rangli qog'ozlardan gullar shaklini yasash

1	Darsning maqsadi	<p><b>1. Ta'limi maqsad:</b> O'quvchilarga qog'ozni turli shakllarda buklash, qirqish haqida ma'lumotlar berish. Qog'ozni buklab, qirqish orqali gullar shaklini yasashga o'rgatish.</p> <p><b>2. Tarbiyaviy maqsad:</b> Texnika xavfsizligi qoidalariiga roya qilishga o'rgatish, estetik didni shakllantirish.</p> <p><b>3. Rivojlantiruvchi maqsad:</b> Qog'ozni turli shakllarda qirqish, buklash ko'nikma va malakalarini shakllantirish</p>
2	Darsning jihozlari	<p><b>1.Ko'rgazmali vositalar:</b> Qog'ozni turli shakllarda qirqish, buklash usullaridan namunalari, qog'ozdan yasalgan gul namunalarini, slaydlar.</p> <p><b>2. Ko'rgazmali jihozlar:</b> Rangli qog'oz, oq qog'oz, qaychi, qalam, chizg'ich, elim, latta.</p>
3	Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p><b>1.Uslub:</b> Og'zaki bayon qilish, tushuntirish, tahvil qilish, aqliy hujum</p> <p><b>2. Uslub:</b> Amaliy mashg'ulot, savol-javob</p> <p><b>3. Baholash:</b> Rag'batlantirish, 5 ballik tizimda baholash</p>
4	Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari	<p><b>1.Tashkiliy qism:</b> 10 daqiqa A) Darsga hozirlik ko'rish. 3 daqiqa B) Uy vazifasini mustahkamlash 7 daqiqa</p> <p><b>2. Asosiy qism:</b> 25 daqiqa Aqliy hujum 5 daqiqa Mavzuni bayon qilish 5 daqiqa Amaliy ish 15 daqiqa</p> <p><b>3.Yakuniy qism:</b> 10 daqiqa O'quvchilar bilimini baholash Uyga vazifa berish</p>

### Darsning borishi

1. **Tashkiliy qism:**
  - Salomlashish,
  - Davomatni aniqlash,
  - Uy vazifasini tekshirish,
  - Ish joyini tayyorlash (kerakli ish qurollari va materiallari bilan ta'minlash)



## Maktabgacha ta'lim

### Asosiy qism

#### Aqliy hujum

Darsning boshlanishida o'qituvchi o'quvchilarning qog'ozni buklash usullari orqali turli o'yinchoqlar yasashi haqidagi tushunchalarini aqliy hujum yordamida aniqlaydi:

- Darsda qanday ish qurollaridan foydalanamiz?
- Qog'ozni buklash qirqish usulida gullar yasashni bilasizmi?
- Buklash usulida yasalgan qanday o'yinchoqlarni bilasiz?

#### Yangi mavzu bayoni

O'qituvchi mashg'ulotning boshida qog'oz bilan ishslash mas-hg'ulotlariga oldindan quyidagicha tayyoragarlik ko'rishimi, ya'ni, stolning ustiga qog'oz yozib, qaychi, elim uchun cho'tka, chizg'ich, qalam avtoruchka, old tomonlariga elim qiyqimlar uchun qutti ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz to'plamini qo'yadilar.

O'qituvchi qog'ozni buklash, qirqish usullari haqida tushuncha beradi. Qog'ozni teng ikkiga, to'rtga, sakkizga buklash orqali gullar shaklini qirqib yasash usullari bilan tanishtiradi. Amaliy mashg'ulot o'qituvchining doimiy nazoratida bo'ladi.

#### Amaliy ish:


O'qituvchi o'quvchilarga qog'ozni buklash, qirqish orqali gullar shaklini yasashga, qaychi bilan ishslash qoidalarga amal qilib qirqish usullarini ko'rsatib o'rgatadi.

Gullarni qirqish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

**1-Bosqich.** Rangli qog'oz tanlab olinadi. Rangli qog'ozda doira shaklini chizing.

**2-Bosqich.** Doira ichida gul rasmini chizib oling.

**3-Bosqich.** Gul shaklini qirqib oling.




**4-5-Bosqich.** Gulning rangiga uyg'unlashgan ikkinchi rangli gul qirqib, bir-biriga yelimlang.

**6-7-Bosqich.** Gullarning o'rtasiga rangli qog'ozda doira qirqib yelimlang.

Darsning yakuniy qismida o'quvchilarning bajargan ishlari tahlil qilinadi. Har bir o'quvchining bajargan ishlari izohlanib baholanadi. Gullarning boshqa turlarini yasab kelish uy vazifasi etib beriladi.

Mashg'ulot yakunida ish o'rinnari tozalanadi.

#### Qog'ozdan yasalgan gullarning namunasi.



#### Adabiyotlar

1. X.Sanaqulov, D.Xodiyeva "Tabiiy materiallardan amalii ishlar". – T.: 2009.

2. Shumulevich N.M. "Qog'oz dan texnik modellar yasash" – T.: "O'qituvchi" 1989.

3. R.Mavlonova "Turtinchi sinfda mehnat darslari". – T.: "O'qituvchi". 1989.

4. R.Hasanov, H.Egamov "Tasviriy sa'nat va badiiy mehnat" – T.: "O'qituvchi". 1997.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATRLASHTIRILGAN O'YINLARNING AHAMIYATI

Sh.T.Xasanova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

В данной статье приводятся мысли о значении театрально-затейливых игр в формировании творческих способностей детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова и понятия:** театр, творческая способность, сказка, герой сказок, персонажи, идеал.

Teatr faoliyati bolalar ijodiyotining eng keng tarqalgan turidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun har bir adabiy asar yoki ertak har doim axloqiy yo'nalishga ega (do'stlik, mehr-oqibat, halollik, jasorat va boshqalar), ular tufayli ijtimoiy xatti-harakatlar ko'nikmalar shakllanadi. Ertaklar tufayli bola dunyonи nafaqat aqli bilan, balki qalb bilan ham o'rganadi, yaxshilikka ham, yomonlikka ham o'z munosabatini bildiradi. Sevimli qahramonlar ularning ideallariga aylanadi. Aynan bolaning qahramonlarga taqlid qilish qobiliyat tarbiyachi-pedagoglarga teatr faoliyati orqali bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishga imkon beradi

Teatr faoliyati bolaga muammolarni personaj orqali bilvosita hal qilishga imkon beradi. Bu uyatchanlikni yengishga, o'ziga ishonchni ortishiga olib keladi. U o'yin bilan bog'liq bo'lganligi sababli bola shaxsiga yaqin va tushunarli, chunki u bola tabiatida o'z-o'zidan aks ettiriladi.

Teatr o'yinlari qobiliyatlarni rivojlanadir, umumiy rivojlanishga

This article discusses the importance of theatrical games in the formation of the creative abilities of preschool children.

**Key words and concepts:** theater, creativity, fairy tale, heroes of fairy tales, characters, ideal.

yordam beradi, qiziquvchanlikni namoyon qiladi, ma'lumot va yangi usullarni o'zlashtirish, fikrlashni rivojlantiradi, qat'iyatlilikni shakllantiradi. Bundan tashqari, ushbu o'yinlar ijodiy qobiliyatlarini va ma'nnaviy ehtiyojlarni rivojlaniradi, o'ziga bo'lgan hurmatni oshiradi.

Teatr faoliyatining ta'lim imkoniyatlari keng. Unda ishtirok etgan bolalar rasmlar, ranglar, tovushlar, mohirlik bilan berilgan savollar orqali atrofdagi dunyo xilma-xilligi bilan tanishadilar. Teatr ularni o'ylashga, tahlil qilishga, xulosha chiqarishga va umumlashtirishga majbur qiladi. Aqliy rivojlanish nutq bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni yaxshilaydi. Mazkur mashg'ulotlar bola nutqi personajlarga taqlid etish harakati tufayli yaxshilanib boradi. Amalga oshirilgan rol, aytigel gaplar bolani aniq, qisqa va lo'nda o'z fikrini ifoda etishga o'rgatadi. U o'zining dialogik nutqini, uning grammatik tuzilishini yaxshilaydi

Pedagoglar o'z ish faoliyatlarida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolani tarbiyalash va ta'lim berishda teatrlashtirilgan o'yinlarning



верхностным: они охватывают в первую очередь внешние стороны предметов, явлений, которые затем и воспроизводят в практической деятельности.

Принципиально значимой является и эмоциональная окрашенность детской деятельности, в которой ребёнок свободно может использовать разные материалы, создавать оригинальные образцы. Связь конструирования с повседневной жизнью, с другими видами деятельности (игрой, театром и т.п.) делает его особенно интересным, эмоционально насыщенным и позволяет быть одним из средств самовыражения. Потребность в такой деятельности у детей становится ярко выраженной [4].

Психологи и педагоги отмечают, что конструирование плодотворно влияет на всестороннее развитие личности ребёнка.

Так, Н. Ширяева отмечает, что формирование умственной активности - способности рассуждать, делать логические умозаключения и обосновывать свои решения - имеет большое значение в подготовке детей к обучению в школе [5]. Конструирование - одно из средств решения этой задачи.

Благодаря конструированию у дошкольников формируется способность активно думать, осознанно ставить перед собой задачи и находить пути их решения. При этом ребёнок

производит необходимые умственные операции, проверяя их практикой. У него развивается также творческое воображение, что немаловажно для любой деятельности, как в детском саду, так и в школе.

#### Литература

1. Кудрявцев Т.В., Фарапонова Э.А. Психологические основы подготовки учащихся к труду и выбору профессии // Школа и труд / Под ред. П.Р. Атутова, В.А. Кальнея. – М.: 2007.
2. Нечаева, В.Г. Конструирование в детском саду Текст.: методическое пособие для воспитателей / В.Г. Нечаева. – М.: Учпедгиз, 2011. – 160 с.
3. Лиштван З.В. Конструирование Текст. /З.В Лиштван. – М.: 2011
4. Парамонова Л.А. Теория и методика творческого конструирования в детском саду Текст. /Л.А. Парамонова. М.: Издательский центр «Академия», 2002. — 192 с.
5. Ширяева Н.А. Умственная работоспособность как показатель физического здоровья студентов / Слепова Л.Н., Хаирова Т.Н., Дижонова Л.Б. // Международный журнал экспериментального образования. 2014. № 7 (часть 2). С. 105.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining 2016 yil 27 apreldagi

0037-sonli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan.

Nashriyot hisob tabog'i 5,11.

Bosmaxona manzili: "Nur Ziyo Nashr" XK.

Toshkent shahar, Matbuotchilar ko'chasi, 18-uy. Buyurtma №09-11

Bosishga ruxsat etildi 09.11.2020. Formati 60x84, 1/8.

Shartli hisob tabog'i 5,5. Adadi 545 nusxada.